Malakali futbolchilarni tayyorlashning innovatsion pedagogik va texnologik uslublari.....	802
<i>Maxmudov Mamat Raxmatovich</i>	
Maktabgacha ta'limda madaniy qadriyatlarga hurmat hissini shakllantirish metodikasi.....	807
<i>Adolat Xolmatova Muxammadjonovna</i>	
Oliy ta'limda inklyuziv qadriyatlarni shakllantirishda maxsus pedagogikaning o'rni	811
<i>Alijonova Dilorom Azamjonovna</i>	
Sportning kurash turi tarixi, nazariy asoslari va zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari.....	815
<i>Do'stov Dilmurod Karimovich</i>	

MUNDARIJA SOÐERJANIE CONTENTS	O'quvchi qizlarni oliy ta'lim muassasalariga yo'naltirishda ota-onalar bilan ishlashning kollaborativ usullari 818 Egamberdiyev Umidbek Xo'jayevich
The Effectiveness of Art Therapy in Working With Children Experiencing Emotional Stress 821 Ortikova Nargiza Xayrullayevna, Normuratov Laziz Azizovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tovush talaffuzi buzilishining turlarini va darajasini aniqlash usullari 826 Otaboyeva Nodira Qodir qizi	
Ta'limda innovatsion kompetentlikning ahamiyati 830 Qobilova Aziza Tursunovna	
Intellektual madaniyatni rivojlantirishda integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash texnologiyalari 833 Qurbonov Jasurbek Akmaljonovich	
Biologiya, kimyo va geografiya fanlarni o'qitishda iqtidorli o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish 837 Sultanova N. B., Toshpo'latova N. I., Azimov B. I.	
Методика развития навыков самостоятельного обучения учащихся с помощью онлайн-образовательных платформ 840 Суяров Хуршид Бахриддинович	
Oliy ta'limda sun'iy intellektni boshqarishda rivojlangan chet davlatlar tajribasidan foydalanish usullari 844 Tajetdinova Gulnara Abatbay qizi	
Variativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida dialogik nutqni rivojlantirishning nazariy asoslari 852 Turapova Ra'no Barat qizi	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarga og'zaki hisoblashni o'rgatish 857 Jurayeva Muhayyo Nematillayevna	
Trening jarayonidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari 861 Nodirova M. B., Usmanova S. A., Vaxidova U. A.	
Pedagogika oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarining sport faoliyati turlari orqali innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish 865 Turdiyev Umidjon Kamoliddinovich	
Badiiy adabiyot vositasida nutqida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutq shakllarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari 868 Umarova Muhayyo Abdusattor qizi, Mamarajabova Zulfiya Narboyevna	
The Role of Family Support in Fostering Individual Resilience Against Social Offenses (An Integration of Continuing Education, National Values, and Personal Narratives) 873 Khoshimov Lutfullo Khabibullo ugli	
Milliy kiyimlarni zamonaviy material va konstruksiya bilan uyg'unlashtirish 877 Yuldasheva Gulsanam Arken qizi	
Преподавание русского языка в школах Узбекистана глазами будущих педагогов 881 Бахриева Шахноза Давроновна	
Методологические основы дисциплины "Госпитальной педагогики" 886 Равшанова Иноят Эркиновна	
Тропеический блок как ключевой инструмент создания образа восприятия в романе С. Моэма "The Razor's Edge" 889 Тагаева Тамара Баходировна	
Zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya integratsiyasi 892 D. S. Zokirova	
O'quvchi qizlarni oliy ta'lim muassasalariga yo'naltirishda ota-onalar bilan ishlashning kollaborativ usullari 895 Egamberdiyev Umidbek Xo'jayevich	
Umumta'lim maktablarida kimyo fani o'qitishning samarali usullari 898 Yunusov Mirzoxid Mirzakarimovich, Odilova Feruzabonu Oybek qizi, Soibjonova Gulasalxon Farhodjon qizi	
Ertak qahramonlari obrazlari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy va kreativ fikrlash sifatlarini shakllantirish 901 Ortiqova Zulfiya Nurmuhammedovna, Dilnavoz Tojiyeva Abduvohid qizi	
Raqamli o'quv muhitida multimedia kontentini loyihalashning didaktik tamoyillari 905 Rustemov Muxamed Biysenbayevich	
The Essence and Content of The Concept of Ecological Culture 908 Sa'dullayeva Zuhra Murodullayevna	



Talabalarda raqamli refleksiyaning shakllantirishi pedagogik muammo sifatida	912
<i>Salixova Muhayyo Shakirovna</i>	
Kasbiy leksik kompetensiya metodikasi shakllanishining tarixiy rivojlanish asoslari	915
<i>Tog'ayeva Maxfuza Abdunazarovna, Tilovova Gavhar Abdaxatovna</i>	
Autizm spektori buzilishi bo'lgan bolalar tavsifi.....	920
<i>U. M. Utbasarova</i>	
Ta'lim jarayonida qo'llaniluvchi sun'iy intellekt vositalari haqida tushuncha	925
<i>Xakimova Yoqutxon Toxirjon qizi, Pulatova Ziyodaxon Baxodirjon qizi</i>	
Проблемы перевода медицинских терминов: сложности и ошибки, возникающие при переводе медицинской литературы с других языков на русский.....	928
<i>Алибекова Лайло Рахмановна</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining mediakompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish: model, metodologiya va empirik natijalar	931
<i>Asqarxo'jayeva Movluda Saidmuhammadzokir qizi</i>	
Identifying the Cause of Addiction to Alcohol and Drugs.....	935
<i>Nauruzbaeva Ayjan Sarsenbaevna, Reymov Muxamedali Kengesbayevich, Kalmuratova Sara Umirzakovna</i>	
Methods of Utilising the Legacy of Eastern Thinkers in Education.....	938
<i>Raimova Nasiba Abdreimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishda mediasavodxonlikning ahamiyati.....	942
<i>Raximova Zulfiyaxon Xashimjonovna</i>	
Pedagog va maxsus psixologlarni hamkorlikda tayyorlash texnologiyasining tarkibiy komponentlari va ularning xususiyatlari	949
<i>Turg'unov Mirjalol Mirzahamdani o'g'li</i>	
Og'ir vazn yo'qotish (weight cutting)ning organizm fiziologiyasiga salbiy ta'siri	952
<i>Ibragimov Azizbek Ilhom o'g'li</i>	
Языковая политика и её влияние на статус русского языка в образовательной среде Узбекистана ..	956
<i>Бобаназарова Шоира Содиковна, Нурмаматов Бобур Ботирович</i>	
Sun'iy intellekt didaktik ta'limot vositasi sifatida ahamiyati	961
<i>To'raboyeva Mahliyo Qo'zimbek qizi</i>	
Embracing Diversity in the Classroom: Inclusive Education Strategies for Empowering All Learners	964
<i>Bahronova Maftuna Farhadovna</i>	
Ta'lim jarayoniga xalqaro pedagogik tajribani samarali joriy etish: usullar va yondashuvlar	968
<i>Xakimov Sodiqjon Rasuljon o'g'li</i>	
O'quvchilarning umumdaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning shakllari, vositalari, usul va metodlari.....	972
<i>Abdiramanov Bahodir Sag'iydullaevich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni zararli odatlarga qarshi kurashga tayyorlashning amaliy holati va tahlili	975
<i>Abdulazizova Nilufar Abdurahmonovna</i>	
Ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirish mexanizmlari orqali talabalarda ekologik ongning shakllantirish.....	980
<i>Abdullayeva Umidaxon G'ulomidinovna</i>	
Tayyorlov guruhi bolalarining tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish	983
<i>Abdumuhitorova Mohlaroy Baxtiyorjon qizi</i>	
Psixologik va pedagogik nuqtai nazardan sanogen va patogen tafakkur mexanizmlari	986
<i>Abdushukurova Mushtariy</i>	
Maktabgacha ta'limda estetik tarbiya berishning mazmuni va shakllari	991
<i>Altibayeva Gulbaxor Majitovna</i>	
Methods of Developing Linguocultural Competence Through Teaching Color Concepts	997
<i>Arabova Gulnura Yuzboy qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish zarurati.....	1000
<i>Axunbabayeva Shaxnoza Shuxratovna</i>	
Hisor ekspeditsiyasi tarixi	1004
<i>Begaliyeva Mehriniso Olimnazarovna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak fizika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning psixologik-pedagogik asoslari.....	1007
<i>Boqiyev Sarvar Tangirqul o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida multimedia vositalaridan foydalanishning ahamiyati	1011
<i>Bozorov Erkin Xodjiyevich, Ergashev Asqar Jong'oboyevich, Sharipov Sharofiddin Arslonqulovich</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	The Importance of Specialized Terminology in the Educational Process.....	1014
	Dilnoza Yuldasheva Bekmurodovna	
	The Problems of Linguistic Analysis of Elliptical Sentences in Modern English.....	1019
	Eshonkulov Ravshan Tokhirovich, Jurayeva Hilola Kamol qizi	
	Boshlang'ich ta'limda sintaksis materiallarini o'qitishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati.....	1025
	G'aniyeva Shodiya Azizovna, Nabiyeva Omaxon Rahmonberdi qizi	
	Rivojlanishi sust bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari.....	1028
	Hamroqulova Dilnavoz Fayziyevna, Tohirova Shaxnoza Nodir qizi	
	Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda pedagogik diagnostikaning o'rni va zamonaviy usullari.....	1031
	Hasanova Irodaxon Najmiddin qizi	
	Maktabgacha yoshdagi bolalarda taekvondoga ixtisoslashtirilgan mashqlar majmualari orqali egiluvchanlik sifatlarini rivojlantirish.....	1034
	Iminova Z. B.	
	Inklyuziv ta'lim tamoyillari, tizimi va unda o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ahamiyati.....	1038
	Inayatova Nargisa Nishonboyevna	
	O'quvchilarda muloqot madaniyati ko'nikmalarini shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish.....	1044
	Kalmuratovna Venera Sultanova	
	Integrativ yondashuv asosida tarbiyachilarning metakompetentligini rivojlantirish masalalari.....	1049
	Kamola Abdullayeva	
	O'rta Osiyo ziyolilarining mehnat tarbiyasi haqidagi fikr-mulohazalari.....	1052
	Karimov Orif Obloqul o'g'li	
	Maktab ta'lim tizimida innovatsiyalarning o'rni va ahamiyati.....	1055
	Kistabayeva Gulchexra Jo'raqulovna	
	Competency-Based Approach to Organizing the Educational Process for Pre-Service Teachers.....	1060
	Mahkamov Abdulqodir Ismoil o'g'li	
	Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlarning ta'siri.....	1063
	Makulov Shuxratjon Zokirovich	
	Bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslar.....	1067
	Mamadjonova Sakina Mo'minjonovna, Maxmudova Oygul Toxirjonovna	
	Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish.....	1072
	Mamatmo'minova Muhabbat G'afforovna	
	Boshlang'ich sinf matematika darslarida vaqtga oid masalalarni yechishda 5E modelidan foydalanishning samaradorligi.....	1075
	Mansurova Umida Mansur qizi	
	Inklyuziv ta'limda pedagog, psixolog va ota-onalar hamkorligini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlari.....	1081
	Matupayeva Shohsanam Zaripboy qizi	
	Sog'lom turmush tarzi – sog'lom kelajak kafolati.....	1084
	Murodov Nozimjon Olimjonovich	
	Bolalar nutqini rivojlantirishda ota-onalar bilan hamkorlikning innovatsion shakllari.....	1088
	Nafasova Jamila Turg'un qizi	
	Maktabgacha ta'limda ijtimoiy-kommunikativlikni bilingvizm vositasida shakllantirish.....	1093
	Najmiddinova Gulnoza Odilovna	
	Boshlang'ich sinf matematika darslarida kasrlarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni va samaradorligi.....	1097
	Jalilov Muhammadali, No'monova Durdonaxon Ulug'bek qizi	
	Oliy ta'limdagi matematik kurslarni umumta'lim maktabi dasturlari bilan uyg'unlashtirish modeli.....	1101
	O'rozboyev Nusratbek Ziyaddin o'g'li	
	Yosh davrlar psixologiyasi va yoshga doir xususiyatlari.....	1104
	Orifjonova Nazokat Maribjon qizi	
	Boshlang'ich sinf darsliklaridagi assosiativ mashqlar orqali o'quvchilarda tabriya tushunchasini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari.....	1108
	Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Xomidova Roziyaxon Ilxomjon qizi	
	Nemis tili o'qitish jarayonida talabalarni innovatsion-pedagogik faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari.....	1112
	Ostanov Askarjon Nuriddinovich	



“Ilk qadam” maktabgacha davlat o‘quv dasturining pedagogik-psixologik asoslari	1117
<i>Parmonkulova Mo‘tabar Zaynitdinovna</i>	
Ta’lim sohasida motivatsiyani oshirishning samarali usullari	1121
<i>O. I. Pirmatov, I. S. Sobirova</i>	
Boshlang‘ich ta’limda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning pedagogik asoslari ..	1126
<i>Qurbonova Maxtuma Fazliddinovna, Xolboyeva Dildora Azizovna</i>	
Innovatsion yondashuv asosida talabalarni ijodiy izlanuvchanlik faoliyatiga tayyorlashning mavjud holati .	1131
<i>Rahmatova Barnogul Karimjonovna</i>	
Aqliy rivojlanishning o‘quvchilarda ijodiy qobiliyat rivojlanishiga ta’sirini empirik o‘rganish natijalari tahlili...	1138
<i>Rahmatullayeva Mushtariy Parda qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida oilaviy munosabatlar tushunchasining rivojlanishi	1143
<i>Rahmonova Dilafro‘z Baxronjon qizi</i>	
Millatlararo oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi va etnik identifikatsiya jarayonining psixologik xususiyatlari.....	1146
<i>Roziqova Malika Olimovna</i>	
Fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarning amaliy kompetensiyasini tajribalar orqali shakllantirish	1149
<i>Sattorov Boburbek Zokirovich</i>	
Chet tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida autentik materiallardan foydalanishning o‘rni va ahamiyati ..	1153
<i>Shaxlo Xalilova, Maqsuda Turapova</i>	
Ta’lim tizimini moliyalashtirish	1156
<i>T. Seydemetov</i>	
Integrating Sports Terminology Into English Teaching.....	1161
<i>Tursunboyeva Latofat Tuxtamurodovna</i>	
Yuzni skanerlash asosida operatsion tizim foydalanuvchilarini identifikatsiya qilish algoritmlari va dasturiy ta’minotini ishlab chiqish.....	1165
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o‘g‘li</i>	
The Impact of Didactic Play on the Development of Medical Students’ Visual Competence	1173
<i>Utambetova Arzayim</i>	
Bo‘lajak o‘qituvchilarda valeologik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik tizimi	1176
<i>Xudoyberdiyev G‘iyosiddin Baxtiyor o‘g‘li</i>	
Bo‘lajak muhandislarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirish omillari	1180
<i>Xuramova Farangiz Uchqun qizi</i>	
Inklyuziv ta’lim tamoyillari va uning mazmun-mohiyati	1185
<i>Yakubjanova Muhayyo Qodirjanovna</i>	
Classical Psychoanalysis and its Modifications Among Students: Z. Freud’s Classical Psychoanalysis	1189
<i>Zebiniso Mamarajab qizi Qurbonova</i>	
Talabalarini ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirish texnologiyasi	1195
<i>Zikriyayev Faxriddin Ma‘mur o‘g‘li</i>	
Проблемы формирования математических представлений детей в дошкольных образовательных организациях.....	1200
<i>Пак Светлана Викторовна</i>	
Теоретические основы формирования навыков говорения у учащихся уровня А2	1204
<i>Сагиндилов Алишер Алеутдинович</i>	
Проблема готовности детей старшего дошкольного возраста к обучению в школе	1208
<i>Ширбачеева Гульчехра Шакировна</i>	
Роль оздоровительной аэробики в повышении физической подготовленности учащихся	1211
<i>Яхшиева Мехринигор Шавкатовна</i>	
Zamonaviy futbol taktikalarining rivojlanishi va jamoa o‘yiniga ta’siri	1216
<i>Mirzamatov Akramjon G‘apurjonovich</i>	
Mehnat bozorining zamonaviy talablariga mos ta’lim modellarini loyihalash va metodik asoslarini ishlab chiqish	1219
<i>Bannayev Qosimjon Qodirjonovich</i>	



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SINTAKSIS MATERIALLARINI O'QITISHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUVNING AHAMIYATI

G'aniyeva Shodiya Azizovna

Farg'ona davlat universiteti professori,
 filologiya fanlari doktori (DSc)

Nabiyeva Omaxon Rahmonberdi qizi

Farg'ona davlat universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich ta'limda sintaksis materiallarini o'qitishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda o'quvchilarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirishda interaktiv va faol metodlarning samaradorligi tahlil etiladi. O'yinlar, guruh ishlari va vaziyatli mashqlar orqali o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalari, mantiqiy tafakkuri hamda tilni real kommunikativ vaziyatlarda qo'llash qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Maqolada ona tili darslarida sintaksis va kommunikativ topshiriqlarni samarali integratsiya qilish bo'yicha metodik tavsiyalar beriladi. Tadqiqot natijalari pedagogik amaliyot, metodik ishlar va o'quv dasturlarini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, sintaksis, kommunikativ yondashuv, kommunikativ kompetentlik, o'qitish metodikasi, interaktiv mashqlar, o'quv faoliyati, metodik tavsiyalar, nutqiy ko'nikmalar, o'yin texnologiyalari.

Abstract: The article discusses the significance of the communicative approach in teaching syntax materials in primary education. The study analyzes the effectiveness of interactive and active teaching methods in developing students' communicative competence, including games, group tasks, and situational exercises. It demonstrates how syntactic activities enhance students' speech skills, logical thinking, and ability to use language in authentic communicative contexts. The article provides methodological recommendations for effectively integrating syntax and communicative tasks in native language lessons, contributing to a more interactive, engaging and productive learning process. The findings hold practical value for primary school teachers, educational methodologists and curriculum developers.

Key words: primary education, syntax, communicative approach, communicative competence, teaching methodology, interactive exercises, student activity, methodological recommendations, speech skills, game-based learning.

Аннотация: В статье раскрывается значение коммуникативного подхода при обучении синтаксическим материалам в начальном образовании. В исследовании анализируется эффективность интерактивных и активных методов обучения, включая игровые технологии, групповые задания и ситуационные упражнения, в формировании коммуникативной компетентности учащихся. Показано, что синтаксические упражнения способствуют развитию речевых навыков, логического мышления и умения применять язык в реальных коммуникативных ситуациях. В статье представлены методические рекомендации по эффективной интеграции синтаксиса и коммуникативных заданий на уроках родного языка, что способствует более интерактивной, интересной и результативной организации учебного процесса. Результаты исследования имеют практическую ценность для педагогов начальных классов, методистов и разработчиков учебных программ.

Ключевые слова: начальное образование, синтаксис, коммуникативный подход, коммуникативная компетентность, методика обучения, интерактивные задания, учебная деятельность, методические рекомендации, речевые навыки, игровые технологии.

KIRISH

Kommunikativ kompetensiyaning asosiy vazifasi – o'quvchilarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirish, ya'ni ularning nutqni tushunish, to'g'ri ifodalash va muloqotda faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirishdir. Shu nuqtai nazardan, sintaksis va kommunikativ topshiriqlarni birlashtirish, interaktiv va faol metodlarni qo'llash boshlang'ich ta'limda til o'qitish jarayonining samaradorligini oshiradi. Kasbiy muloqot o'qituvchining kommunikativ kompetensiyasining asosiy qismidir; u har doim hamjamiyatni, o'xshashlikni, o'zgalarni anglash va qabul qilishga bo'lgan o'zaro intilishni, nafaqat oqilona baholash, balki javob berish, shuningdek, hissiyot bilan hamdard bo'lishni nazarda tutadi.

Til o'rganish jarayonida sintaksis – gap tarkibi, gap bog'lanishi, gap a'zolarining o'zaro munosabati kabi tilning tuzilmaviy jihatlari – markaziy ahamiyatga ega bo'ladi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini, nutqiy faoliyatini va kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish tilshunoslik va



metodika nuqtai nazaridan muhim vazifalardan biridir. Bugungi kunda til o'qitishda faqat grammatik jihatlariga e'tibor qaratishdan ko'ra, tilni real kommunikativ vaziyatlarda ishlatish qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvlar, xususan kommunikativ yondashuv, katta ahamiyat kasb etadi.

Kommunikativ yondashuv (Communicative Approach, CLT) o'qitishda o'zaro interaksiya, ma'noga yo'naltirilgan faoliyat va tilni amalda qo'llash prinsiplari ustuvorligini ta'kidlaydi. An'anaviy dars uslublarida ko'pincha sintaksis mavzulari alohida, quruq ko'rinishda, qoidalar va mashqlar orqali beriladi. Ammo bunday uslub o'quvchilarda tilni real suhbatlar, matnlar va dialoglarda qo'llash imkonini yetarlicha yaratmasligi mumkin. Kommunikativ yondashuv esa sintaktik strukturalarni til ichidagi kommunikativ vazifalar bilan bog'lab o'rgatadi – ya'ni sintaksis elementlari ma'no va funktsional jihatdan tushuntiriladi hamda amaliy qo'llashga yo'naltiriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Til o'qitishda kommunikativ yondashuv va sintaksis materiallarini o'rgatish masalasi lisoniy va metodik tadqiqotlarda keng o'rganilgan. O'quvchilarning kommunikativ qobiliyatini rivojlantirishga doir tadqiqotlar ko'plab olimlar tomonidan olib borilgan bo'lib, ushbu yo'nalish ta'lim jarayonida alohida o'rin tutadi. Soha taraqqiyotida chet el tadqiqotchilaridan N. Saltanova, T. Miteva, A. N. Gapparova, Aykut Arslan, K. Johnson, I. Polatov hamda o'zbek tadqiqotchilaridan S. Kamolova, X. Maxsitovna, R. Usarov, S. Aliyarevna, M. Adilova va Kosimova kabi olimlar kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha so'nggi yillarda qator ishlar olib bormoqda.

N. Yu. Saltanova "Коммуникативный синтаксис: выразительное членение как использование потенциала языковой системы" maqolasida kommunikativ sintaksis nazariyasini tahlil qiladi. Muallif sintaktik birliklarning zamonaviy tildagi ma'nosi va strukturasi orasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi hamda gap ichidagi aktuallik bo'linishini chuqur o'rganadi^[2].

T. P. Miteva "Коммуникативный синтаксис и фразовая просодия" maqolasida gap ichidagi aktuallik bo'linishi va frazaviy urg'u munosabatini o'rganadi. Bu ish sintaktik tuzilmalar va intonatsiyaning kommunikativ jihatdan qanday rol o'ynashi mumkinligini misollar bilan asoslaydi^[3].

A. S. Belkin ta'kidlaganidek, kompetensiyani inson ongidagi bilim tarkibiy qismlarining to'plami sifatida tushunish kerak. U hayot va inson faoliyatining muhim jihatlari, shuningdek, vakolatlarni amalga oshirish usullari to'g'risidagi ma'lumotlar tizimini kompetensiyaning negizi sifatida izohlaydi. Muallif o'z fikrida "inson jamiyat a'zosining ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan huquq va majburiyatlarini amalga oshirishda ega bo'lgan ijtimoiy funksiyalarning umumiyli"ni ta'kidlaydi^[1].

Boshlang'ich ta'limda sintaksis materiallarini o'qitishda kommunikativ yondashuvning samaradorligini aniqlashda I. V. Smirnova tadqiqotlari ham muhim o'rin tutadi. Muallif o'quvchilarning grammatika qoidalarini o'zlashtirish jarayonida kommunikativ vaziyatlar va real muloqot misollaridan foydalanish nutqiy ko'nikmalarni mustahkamlashga yordam berishini ta'kidlaydi. Smirnova interaktiv mashqlar va guruh ishlari orqali o'quvchilarda sintaksisni amaliy qo'llash qobiliyatini oshirish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslaydi^[8].

S. U. Kamolova boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirish bo'yicha tadqiqot olib borgan. Maqolada o'qituvchilarning pedagogik faoliyatida kommunikativ komponentni rivojlantirish jihatlari ko'rib chiqiladi. Bu esa boshlang'ich bosqichda o'quvchilarga sintaksisni kommunikativ kontekstda o'rgatishda muhim omil ekanini ko'rsatadi^[6].

R. X. Usarov va mahalliy tadqiqotchilar O'zbekiston pedagogika muassasalarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish va universitetlarda rus tilini o'qitishda innovatsion kommunikativ texnologiyalarni joriy etish masalalarini o'rgangan. Ushbu tadqiqotlar ta'lim muassasalarida kommunikativ yondashuvni kengaytirish ehtiyojini va metodik yangilanish zarurati asoslaydi^[9].

S. S. Alliyarovna "4K tamoyili asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish" mavzusida maqola chop etgan bo'lib, unda kommunikativ kompetensiyaning bosqichlari va boshlang'ich ta'lim jarayonidagi tatbiqi ko'rib chiqiladi. Tadqiqot sintaktik materiallarni kommunikativ vaziyatlarda o'rgatish uchun amaliy metodlar taklif etadi^[4].

Boshlang'ich ta'limda sintaksis materiallarini o'qitishda kommunikativ yondashuvning samaradorligi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Masalan, A. A. Zaxarova o'z tadqiqotida kommunikativ metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarning nutqiy va mantiqiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirish ahamiyatini ta'kidlaydi. Muallif interaktiv mashqlar va vaziyatli topshiriqlarning tilni amaliy qo'llashdagi ahamiyatiga alohida urg'u beradi^[10].

Shuningdek, B. V. Petrova tadqiqotida boshlang'ich sinflarda sintaksis qoidalarini o'rgatishda an'anaviy va kommunikativ yondashuvlar solishtiriladi. Muallifning fikricha, kommunikativ yondashuv asosida o'qitish nafaqat grammatik qoidalarni tushunishni, balki o'quvchilarning nutqiy faoliyatini va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi^[7].

Mazkur tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinflarda sintaksisni o'rgatishda kommunikativ yondashuvni qo'llash nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy nutqiy ko'nikmalarni ham rivojlantirishga yordam beradi. Shu sababli, maqolada o'quvchilarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirish uchun interaktiv va faol metodlarni qo'llashga alohida e'tibor qaratilgan.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda sifatli va qisman miqdoriy tahlil usullari qo'llanildi. Asosiy metodlar quyidagilardan iborat:

1. **Nazariy tahlil:** boshlang'ich ta'lim, sintaksis va kommunikativ kompetentlik bo'yicha o'zbek va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari o'rganildi.
2. **Tajriba-sinov ishlari:** 2–4-sinf o'quvchilarida sintaksis bo'limiga oid materiallarni o'qitishda kommunikativ yondashuv asosida interaktiv mashqlar (dialoglar, rolli o'yinlar, matn asosida gap tuzish) qo'llandi.
3. **Kuzatish va suhbat metodi:** dars jarayonida o'quvchilar faoliyati kuzatildi, ular bilan suhbat orqali o'zlashtirish darajasi va kommunikativ faolligi baholandi.
4. **Diagnostik topshiriqlar:** tajriba va nazorat sinflarida sintaksis mavzulari bo'yicha testlar, yozma va og'zaki topshiriqlar bajarildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki:

1. Kommunikativ yondashuv asosida dars o'tilgan sinflarda o'quvchilar sintaksis qoidalarini nafaqat nazariy bilib, balki amaliy nutq faoliyatida qo'llashga muvaffaq bo'lishdi. Masalan, 2-sinfda "Sodda gap" mavzusini o'rganishda o'quvchilar bir-biri bilan muloqot asosida gap tuzish va savol-javob qilish orqali mavzuni mustahkamlashdi.
2. Nazorat sinflarida an'anaviy usul bilan o'qitilgan o'quvchilar ko'proq grammatik qoidalarni eslab qolish bilan cheklanib qoldi, amaliy nutq faoliyatida esa xatolarga yo'l qo'yish holatlari kuzatildi.
3. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, kommunikativ yondashuv sintaksis materiallarini o'zlashtirish samaradorligini oshiradi, o'quvchilarda muloqot kompetensiyasi, mustaqil fikrlash va nutqiy faollikni rivojlantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang'ich ta'lim jarayonida sintaksis materiallarini o'qitishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati beqiyosdir. O'quvchilarda nafaqat grammatik bilimlarni shakllantirish, balki ularni nutqiy faoliyatda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish bugungi ta'limning dolzarb vazifalaridan biridir. Tadqiqot davomida olib borilgan tajriba-sinov ishlari ham bu yo'nalishning samaradorligini tasdiqlab berdi. Sintaksis materiallarini o'qitishda kommunikativ yondashuv boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida nafaqat grammatik bilimlarni egallashni, balki ularni real muloqot vaziyatida qo'llash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Interaktiv metodlar (dialog, rolli o'yinlar, matnga asoslangan gap tuzish topshiriqlari) sintaksis mavzularini o'zlashtirish samaradorligini oshirib, o'quvchilarda mustaqil fikrlash va nutqiy faollikni kuchaytiradi. Nazorat va tajriba sinflaridagi taqqoslama tahlil shuni ko'rsatdiki, kommunikativ yondashuv asosida o'qitilgan sinf o'quvchilari nutqiy kompetensiya va sintaksis bo'yicha nazariy-amaliy tayyorgarlikda an'anaviy metodda o'qitilgan sinflarga nisbatan yuqori natijalarga erishdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ona tili va o'qish savodxonligi darslarida sintaksis bo'limi materiallarini kommunikativ topshiriqlar bilan integratsiya qilish DTS talablariga muvofiq o'quvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Kelgusida sintaksis materiallarini o'qitishda zamonaviy raqamli texnologiyalar va interaktiv platformalarni qo'llash orqali o'quvchilarning kommunikativ faolligini yanada oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Белкин А. С. Педагогическая компетентность. – Екатеринбург, 2003. – С. 186.
2. Салтанова Н. Ю. Коммуникативный синтаксис: выразительное членение как использование потенциала языковой системы. – 2020.
3. Митева Т. П. Коммуникативный синтаксис и фразовая просодия. – 2020.
4. Alliyarova S. S. 4K tamoyili asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish. – 2024.
5. Boltayeva B. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida kommunikativ yondashuvning ahamiyati. – Toshkent: JDPI nashriyoti, 2021. – B. 112.
6. Kamolova S. U. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirish jihatlari (maqola).
7. Petrova B. V. Metodika obucheniya sintaksisu v nachal'noy shkole: Traditsii i innovatsii. – Saint Petersburg: Piter, 2020. – B. 112.
8. Smirnova I. V. Primenenie kommunikativnogo podkhoda pri obuchenii sintaksisu v nachal'noy shkole. – Moscow: Akademiya, 2019. – B. 78–80.
9. Usarov R. X. Formirovanie kommunikativnoy kompetentnosti v pedagogicheskikh vuzakh Uzbekistana.
10. Zaxarova A. A. Kommunikativniy podkhod v obuchenii nachal'nykh klassov. – Moscow: Prosveshchenie, 2018. – B. 45–47.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.